



THE MAIN DIRECTIONS AND PRINCIPLES OF THE FOREIGN POLICY OF THE KINGDOM OF SAUDI ARABIA

Shakhrizonu G. Ne'matova

master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: shakhrizonunematova02@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Foreign policy, Arab League, Organization of Islamic Cooperation, Gulf region, Arab states, Islamic world, international community.

Abstract: The article discusses the main directions and principles of the foreign policy of the Kingdom of Saudi Arabia, as well as the factors shaping its diplomatic relations in the international arena.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGI TASHQI SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOYILLARI

Shakhrizonu G'. Ne'matova

magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: shakhrizonunematova02@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tashqi siyosat, Arab ligasi, Islom hamkorlik tashkiloti, Ko'rfaz mintaqasi, arab davlatlari, islom dunyosi, xalqaro hamjamiyat.

Annotatsiya: Maqolada Saudiya Arabistoni Podshohligi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari va tamoyillari, shuningdek, uning xalqaro maydondagi diplomatik munosabatlarini shakllantiruvchi omillar haqida so'z boradi.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПРИНЦИПЫ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ КОРОЛЕВСТВА САУДОВСКАЯ АРАВИЯ

Шахрибону Г. Неъматова

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: внешняя политика, Лига арабских государств, Организация исламского сотрудничества, регион Персидского залива, арабские государства, исламский мир, международное сообщество.

Аннотация: В статье рассматриваются основные направления и принципы внешней политики Королевства Саудовская Аравия, а также факторы, формирующие его дипломатические отношения на международной арене.

KIRISH

So'nggi yillarda jahonda yuz berayotgan voqealar dunyoning geosiyosiy strukturasi va taraqqiyot yo'nalishini tubdan o'zgartirmoqda, jahon siyosatiga asta-sekin yangi suveren davlatlar kirib kelishi natijasida davlatlararo munosabatlar, o'zaro siyosat va diplomatiya maydoni tubdan boshqa mohiyat va mazmun kasb etmoqda. Xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sharoitida Yaqin Sharq mintaqasining arab davlatlari orasida katta siyosiy-iqtisodiy mavqega ega bo'lgan Saudiya Arabistoni Podshohligining tashqi siyosati o'zining mo'tadillik va qat'iylilik asoslariga tayanishi bilan ajralib tursada, ko'pgina omillar mamlakat tashqi siyosatini moslashishga va uning odatiy diplomatik faoliyati xususiyatlaridan tashqariga chiqishga undamoqda, uning yondashuvini qayta belgilamoqda. Shunga qaramasdan bugungi kunda ham SAP ning tashqi siyosati xalqaro ittifoqchilar bilan diniy, iqtisodiy, tarixiy, siyosiy va geografik munosabatlarni o'z ichiga olgan ko'plab tamoyillarga asoslanadi. Saudiya Arabistonining tashqi va milliy xavfsizlik siyosatining asosiy maqsadlari mamlakatning ichki va tashqi hayoti jabhalarini islom dini ta'limoti asosida boshqarish, mamlakatning hududiy xavfsizligi va iqtisodiy boyligini himoya qilish hamda mamlakat hukmron tuzumini saqlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Maqolada tarixiy, kontent va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Saudiya Arabistoni tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari bu boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, Podshohlik suverenitetini va hududlari yaxlitligini himoya etish, Podshohlikning Ko'rfaz mintaqasi, arab dunyosi va musulmon olamidagi mavqeini mustahkamlash, sanoati rivojlangan yetakchi davlatlar bilan munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Saudiya Arabistoni tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- SAPning jahon hamjamiyati orasidagi mavqeini oshirish;
- davlatning iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishiga jiddiy ahamiyat berish, Saudlar uyi obro'si va rolini oshirish;
- arab mamlakatlari va musulmon olami manfaatlarini ko'zlagan holda siyosat yuritish;

- musulmon davlatlari bilan birdamlikni mustahkamlash;
- islom tarixi davomidagi Podshohlikning o'rnini inobatga olgan holda uning musulmon olamidagi yetakchilik rolini saqlab qolish;
- mintaqada tinchlik va barqarorlik qaror topishi yo'lidagi faoliyatini rivojlantirish; neft qazib oluvchi va uni iste'mol qiluvchi davlatlar manfaatlarini inobatga olib, odilona neft siyosatini olib borish;
- Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi faoliyatini yanada kengaytirish va uning rivojlanishi yo'lida ish olib borish [1].

Saudiya Arabistonining sobiq Qirolli Fahd bin Abdulaziz SAPning tashqi va ichki siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab shunday ta'kidlagan edi: "Podshohlikning tashqi va ichki faoliyati birinchi navbatda davlatni to'la va kompleks ravishda rivojlantirishga qaratilgan. Baxtimizga tamoyillarimiz vaqtlar davomida o'zgaras poydevorga asoslangandir. Podshohlik do'st mamlakatlarga doimo barcha yordamlarni ko'rsatishga harakat qiladi" [2].

Saudiya Arabistonining tashqi siyosati bir qancha konstitutsiyaviy va huquqiy asoslar va hujjatlarga asoslanadi. Bulardan birinchisi boshqaruvning asosiy qonuni hisoblanadi. Saudiya Arabistonining 1992-yilda qabul qilingan asosiy qonuni mamlakat konstitutsiyasi bo'lib xizmat qiladi. Unda davlat boshqaruvi tizimi, fuqarolarning huquq va majburiyatlari, boshqaruvning asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Asosiy qonunda tashqi siyosat aniq belgilanmagan bo'lsada, u tashqi munosabatlarni amalga oshirishning huquqiy asoslarini yaratadi. Saudiya Arabistoni podshohi huzuridagi maslahat organi bo'lgan Sho'ro kengashi tashqi siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kengash turli masalalar, jumladan, tashqi ishlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahat va tavsiyalar beradi. SAP tashqi siyosati mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, arab va islom birligini saqlash, milliy manfaatlarini himoya qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi bir qancha asosiy tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar mamlakatning diplomatik aloqalari va tashqi aloqalarida o'z ifodasini topmoqda. 2000-yilda e'lon qilingan "Ar-Riyod deklaratsiyasi" Saudiya Arabistonining mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga sodiqligini belgilaydi. Deklaratsiyada xalqlar o'rtasida bag'rikenglik, muloqot va hamkorlik tamoyillariga urg'u berilgan. SAP arab davlatlari va islom dunyosi davlatlari tashqi siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan mintaqaviy tashkilotlar bo'lgan Arab Ligasi va Islom hamkorlik tashkiloti a'zosidir. Mamlakat ushbu tashkilotlarda faol ishtirok etib, mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etishda boshqa a'zo davlatlar bilan hamkorlik qiladi. Podshohlik boshqa davlatlar bilan savdo, sarmoya, xavfsizlik sohasida hamkorlik va madaniy almashinuvni rivojlantirish maqsadida ko'plab ikki tomonlama shartnomalar imzolagan. Bu shartnomalar boshqa davlatlar bilan munosabatlarni amalga oshirish uchun huquqiy asos

yaratadi. Umuman olganda, Saudiya Arabistonining tashqi siyosati mamlakat manfaatlarini, mintaqaviy barqarorlikni va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan huquqiy, konstitutsiyaviy va diplomatik asoslarning kombinatsiyasiga asoslanadi.

Saudiya Arabisto Podshohligining tashqi siyosati to'rtta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- Ko'rfaz davlatlari;
- arab davlatlari;
- islom dunyosi;
- xalqaro hamjamiyat

Ko'rfaz davlatlari. Ko'rfaz davlatlari Saudiya Arabistoni uchun xalqaro siyosatda ustuvor ahamiyatga ega. Bu, birinchi navbatda, davlatlarning geografik joylashuvi, tarixiy aloqalari, ushbu mintaqadagi davlatlarning davlat va iqtisodiy tizimlarining o'xshashligi bilan izohlanadi. Saudiya Arabistoni Ko'rfaz davlatlarining xavfsizlikka erishish, mojarolar va inqirozli vaziyatlarni hal qilishdagi maqsadlari birligini e'lon qiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun 1981-yilda GCC (Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi) tashkil etildi. Uning a'zolari mintaqadagi olti arab davlati: Bahrayn, Qatar, Quvayt, BAA, Ummon va Saudiya Arabistoni. Ushbu assotsiatsiyaning maqsadi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va harbiy sohalarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Saudiya Arabistonining Ko'rfaz mintaqasidagi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari xavfsizlik, barqarorlik, kengash davlatlarining ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga rioya qilish, GCC a'zolariga nisbatan tajovuzkorlikka qarshi turish masalalari hisoblanadi. Saudiya Arabistoni GCC doirasida kengash mamlakatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish istagini doimo ta'kidlaydi va GCC davlatlari o'rtasidagi hududiy nizolar va kelishmovchiliklarni tezroq hal qilishga yordam beradi. Saudiya Arabistoni Podshohligi, shuningdek, GCC doirasida umumiy iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishga intiladi, integratsiyalashgan iqtisodiy tizimlarni qurish uchun SAP Ko'rfaz davlatlarining neft sanoati va uning eksporti sohasidagi siyosatini muvofiqlashtirishga alohida e'tibor beradi, chunki neft ushbu mintqa mamlakatlari uchun strategik resurs hisoblanadi.

Saudiya Arabistonining Ko'rfaz doirasidagi tashqi siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlik uchun davlatlarning javobgarligi;
2. o'z ixtiyoriga ko'ra xavfsizlik va mustaqillik huquqlari;
3. ichki ishlarga aralashishni rad etish va har qanday Ko'rfaz mintqasi davlatiga qarshi bunday aralashuv yoki tajovuz barchaga qarshi tajovuz deb hisoblanadi;

4. Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi (GCC) orqali siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik, ijtimoiy va madaniy sohalarda hamkorlikni mustahkamlash;
5. mintaqaviy va xalqaro muammolarga javob berish siyosatini muvofiqlashtirish;
6. mamlakatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni birodarlik va yaxshi qo'shnichilik tamoyillari orqali hal qilish [3].

Arab davlatlari. SAP tashqi siyosatining navbatdagi muhim yo'nalishi barcha arab mamlakatlaridir. Saudiya Arabistoni tashqi siyosat konsepsiyasiga islom qonunlariga rioya qilishni va arab millatchiligi g'oyalariga sodiqlikni kiritdi. Bu tushuncha Saudiya Arabistonining birinchi qiroli Abdul-Aziz hukmronlik qilgan davrga borib taqaladi. Xalqaro hujjatlarda SAP barcha arab davlatlari o'rtasida davlatlarning ichki ishlariga aralashmasdan birdamlikni mustahkamlash zarurligini e'lon qiladi. Saudiya Arabistoni arab davlatlariga har tomonlama yordam berishga intiladi. Podshohlikning diplomatik xizmati arab davlatlari o'rtasidagi ichki va mintaqaviy kelishmovchiliklarni hal qilishda adolatli va mustaqil hakam sifatida harakat qilishga intiladi.

Islom dunyosi. Islom davlatlari orasida SAP xalqaro siyosati umumislomiy birlik va birdamlik tamoyillariga asoslanadi. Musulmon mamlakatlari birligini ro'yobga chiqarish, shuningdek, ularning manfaatlarini himoya qilish maqsadida SAP tashabbusi bilan 1969-yilda Islom konferensiyasi tashkiloti tuzildi. Saudiya Arabistoni uchun islom millatning asosiy xususiyati bo'lib, Saudiya tashqi siyosatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Saudiya Arabistoni qirollari islom olamining "rahbari" sifatidagi mavqeini qonuniylashtirish uchun "Ikki muqaddas masjid qo'riqchisi" unvonidan foydalanadilar va o'zlarini Makka va Madinadagi muqaddas masjidlar qo'riqchisi deb atashadi. Bu unvon tantanali va madaniy unvon bo'lib, tarixda oldingi islom yetakchilari tomonidan ko'p marta qo'llanilgan. Bu unvonni birinchi bo'lib qirol Faysal ishlatgan, undan keyin qirol Fahd, qirol Abdulla va qirol Salmon. Saudiya Arabistoni tashkil topganidan beri "... Podshohlik islom olami muammolariga xizmat qilish va birdamlik maqsadlariga erishish uchun o'z salohiyati va resurslarini bag'ishlash va bag'ishlashga harakat qilmoqda va bir e'tiqodga mansublik haqiqatiga asoslangan birlik.[4]

Saudiya Arabistonining islom olamidagi tashqi siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Har tomonlama islom birdamligiga erishish;
- islom mamlakatlari o'rtasida turli darajadagi salohiyat va resurslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy hamkorlik uchun yangi ufqlarni ochish;
- islom olamiga tahdid solayotgan turli xil madaniyat va intellektual istilo turlariga qarshi turish;

- Islom konferensiyasi tashkilotini rivojlantirish va islom olami duch keladigan muammolarga qarshi kurashishda yanada samaraliroq bo'lish uchun uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mashg'ulotlar;

- yangi dunyo tartibi doirasida islom davlatlarining rolini faollashtirish;

- musulmon ozchiliklarga yordam berish va butun dunyo bo'ylab va ularning huquqlarini xalqaro huquq tamoyillari asosida himoya qilish;

- islom dinining qiyofasini va uning bag'rikenglik qonuni shariatini tanishtirish va islomni islomga qaratilgan barcha ochiq-oydin ayblovlar va tuhmatlardan himoya qilish, masalan: terrorizm va inson huquqlari buzilishi [5].

Xalqaro doira. Xalqaro doirada Saudiya Arabistoni Podshohligi tashqi siyosatining ayrim tamoyillari, jumladan:

- BMT Nizomi, xalqaro shartnomalar va xalqaro huquq asoslariga sodiqlik orqali xalqaro jamiyat bilan munosabat bildirishga tayyorlik;

- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro xavfsizlik va tinchlikka ta'sir etuvchi zo'ravonlikni qoralash majburiyati;

- xalqaro neft bozorlarining barqarorligi va erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli savdoni rivojlantirish;

- dunyoning ko'plab mamlakatlarida tabiiy ofatlar qurbonlari, uysizlar va qochqinlarni qo'llab-quvvatlashning axloqiy tamoyili [6]

Saudiya Arabistoni tashqi siyosatining to'rtinchi yo'nalishi xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Ushbu yo'nalishda SAP jahon hamjamiyatining to'liq a'zosi bo'lishga intiladi va BMT nizomiga muvofiq barcha huquq va majburiyatlarni to'g'ri bajarishga harakat qiladi. SAP ning xalqaro siyosatdagi asosiy maqsadi dunyo tinchligiga erishish va uni saqlashdir. Podshohlik boshqa mamlakatlarni tashqi siyosatda shaffoflik va adolatlilikka chaqiradi. Podshohlik strategiyasiga ko'ra, hokimiyat tashqi siyosat quroli emas, biroq Saudiya Arabistoni xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qonuniy o'zini-o'zi himoya qilish huquqiga amal qiladi. SAP ko'plab xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, shu yo'l bilan xalqaro xavfsizlikni saqlashga har tomonlama harakat qiladi.

XULOSA

Hozirgi dunyo tartibi doirasida Saudiya Arabistoni tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari Saudiya Arabistoni tashqi siyosatining g'oyalarini hisobga olgan holda uning manfaatlarini arab va musulmon dunyosini qamrab olgan islomiy siyosiy birlik sifatida mamlakatning o'z taqdirini o'zi belgilashi bilan bevosita bog'liqdir.

Saudiya Arabistoni rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z tashqi siyosatini amalga oshirish uchun muntazam ravishda diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yimoqda. Podshohlik mintaqaviy va global miqyosdagi jarayonlarga ta'sir qiluvchi faol tashqi siyosat olib bormoqda. Uning tashqi siyosiy salohiyati jahon bozoriga uglevodorodlarning eng yirik yetkazib beruvchisi sifatidagi mavqei bilan belgilanadigan ulkan iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlar bilan bog'liq. Podshohlikning eng yirik neft zaxiralari bilan bog'liq bo'lgan muhim iqtisodiy salohiyati unga jahon savdo-iqtisodiy tashkilotlarining yetakchi ishtirokchisiga aylanish imkonini berib kelmoqda. Bundan tashqari, SAP o'zini islom davlati va global musulmon hamjamiyatining markaziy bo'g'ini sifatida belgilaydi. Bu konsepsiya Saudiya Arabistoni diplomatiyasining asosiy ustuvorliklarini belgilashda asos hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muhammadsiddiqov M.M. Musulmon mamlakatlari va zamonaviy xalqaro munosabatlar. O'quv qo'llanma.– T.: Qaqnus media, 2019.– bet 51 .
2. Муҳаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув қўлланма. Тошкент, ТошДШИ, 2013. – бет 114.
3. “The Foreign Policy of the Kingdom of Saudi Arabia”, Ministry of Foreign Affairs Kingdom of Saudi Arabia. 5August, 2016.
4. <http://repository.umy.ac.id/bitstream/handle/123456789/22863/F.%20CHAPTER%20II.pdf?sequence=6&isAllowed=y>
5. CHAPTER II FOREIGN POLICY OF SAUDI ARABIA. Muhammadiyah University of Yogyakarta
6. <https://www.mofa.gov.sa/en/Pages/default.aspx>